# 13-MAVZU: KASB-HUNAR KOLLEJLARIDA O'QUVCHILAR BILIM, KO'NIKMA VA MALAKALARINI NAZORAT QILISH VA BAHOLASH

Reja:

1. Baholashning ob’ektivligi va tabaqalashtirilganligi
2. Baholashda e’tiborga olinadigan omillar
3. O’quvchilar bilim, ko’nikma va malakalarni baholashning reyting tizimi va uni amalga oshirish

***Baholash va uning ahamiyati*.**

Ta'lim oluvchilar tomonidan o'quv materiallari o'zlashtirilganligini, ko'nikma va malakalar hosil bo'lganligini tekshirish va baholash ta'lim jarayoninnng zarur tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu faqat o'qitish natijalarini nazorat qilish emas, balki o'quv jarayonining turli bosqichlarida ta'lim oluvchilarning bilish faoliyatiga rahbarlik qilish hamdir.

***Baholash*** - ta'lim jarayonining ma'lum bosqichida o'quv maqsadlariga erishilganlik darajasini oldindan belgilangan mezonlar asosida o'lchash, natijalarni aniqlash va tahlil qilishdan iborat jarayondar.

*Nima uchun baholash kerak?*

- o'quv maqsadlariga erishilganlikni aniqlash uchun;
- keyingi bosqichga o'tishdan oldin avvalgi o'zlashtirish darajasini aniqlash uchun;
- natijaga erishganligini tasdiqlash uchun;
- o'quvchilarning qiziqishlarini aniqlash uchun;
- yutuq va kamchiliklarni aniqlash uchun;
- o'qituvchi o'z faoliyatiga tuzatishlar kiritishi uchun;
- yalpi o'zlashtirish darajasini aniqlash uchun;
- ta'lim jarayoni yutuqlarini aniqlash uchun;
- o'quvchilarii yutuqlarga qiziqtirish uchun;
- tashqi qiziquvchilarga, ish beruvchilarga, yuqori tashkilotlarga va ota-onalarga ma'lumot berish uchun.

*Nimani baholash kerak?*

nazariy bilimlarni

amaliy ko'nikma va malakalarni

xulq — atvor va shaxsiy fazilatlarni

*Qachon baholash kerak?*

- ta'lim jarayoni boshida (boshlang'ich baholash
- ta'lim jarayoni davomida (joriy baholash
- ta'lim jarayoni yakunida (yakuniy baholash).


Bahoning talablar asosida qo'yilishi uning ob'ektivligi dir
Bahoning talablari
Ishlash aniqligi
Vaqt me'yori
O'quvchilarning bilimlari
Mehnat usullarini to'g'ri bajarish
Ish o'rnini to'g'ri tashkil qilish
Mehnat xavfsizligi qoidalariga rioya qilish

***Baholash mezonlar.*** Har qanday baholash natijalari o'zaro taqqoslanishi, ya'ni o'lchanishi lozim bo'ladi. Ularni taqqoslash baholashdan oldin yoki keyin ishlab chiqilgan mezonlar asosida amalga oshirilishi mumkin. Baholash mezonlari o'quv maqsadlariga qay darajada erishilganlikni anglatuvchi ko'rsatkichdir. Bu ko'rsatkichlar sonlar («besh», «to'rt», «uch» va hokazo) so'zlar («a'lo», «yaxshi», «qoniqarli» va hokazo) yordamida tavsiflanishi mumkin. Boshqacha qilib aytadigan bo'lsak, baholash mezonlari ta'lim oluvchining qaysi o'zlashtirish darajasini namoyish qilishiga qarab mos qo'yiladigan baho ko'rsatkichining tavsifidan iborat.

*Baholash shakllari*

1. Mezonga asoslangan baholash

2. Me’yorga asoslangan baholash


joriy, ya’ni shakllantiruvchi baholash
boshlang’ich baxholash
yakuniy, baholash
Baholash turlari


RAHMAT
UCHUN
E'TIBORINGIZ